

Xizmatlar ro'yxati

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi "Tovar bozorlari kon'yunkturasini o'rganish hamda investitsiya loyihalari va dasturlarini ekspertizadan o'tkazish Respublika markazi" tomonidan quyidagi xizmatlar taqdim etiladi:

- mahalliyashtirish dasturi pasportlarini ekspertizadan o'tkazish;

Mahalliyashtirish dasturlarini shakllantirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda tadbirkorlik sub'ektlari uchun ular tomonidan taqdim etiladigan hujjatlarni qabul qilish va ko'rib chiqishda qulayliklar yaratish maqsadida tegishli dasturiy majmua – axborot tizimi joriy qilingan. Tizimga kirish vazirlik veb-saytining <http://www.mineconomy.uz/node/385> sahifasi orqali amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik sub'ektlarining Mahalliyashtirish dasturiga kiritishga doir talabnomalarini taqdim etish va ularning ekspert komissiya tomonidan ko'rib chiqilish tartiblari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 21 iyuldagi "Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini shakllantirish mexanizmini takomillashtirish va amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 154-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Sanoat kooperatsiya asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarish Mahalliyashtirish dasturini shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom" asosida amalga oshiriladi.

Mahalliyashtirish dasturlarini shakllantirishga oid tegishli jadval va shakllar Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 21 iyuldagi 154-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

- investitsiya loyihalarining TIA/DTIA, TIH/DTIHni ekspertizadan o'tkazish;

Investitsiya loyihalari hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash ishlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 7 iyundagi 110-sonli "Investitsiya loyihalari hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida amalga oshiriladi.

Mazkur Nizomga muvofiq Iqtisodiyot vazirligi tomonidan - DTIA (DTIH) va "Davarxitektqurilish" qo'mitasining quyidagilar bo'yicha xulosasi taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda ko'rib chiqiladi:

DTIA bo'yicha - iqtisodiyotni barqaror, mutanosib rivojlantirishni ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirishni, tarkibiy qayta o'zgartirishlarni, tarmoqlararo kooperatsiyalashni amalga oshirishni, investitsiya siyosatini

ro'yobga chiqarishni, ishlayotgan quvvatlardan foydalanishni, shuningdek xom ashyo va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bozori kon'yunkturasini ta'minlash nuqtai nazaridan loyihani amalga oshirishning umumiy iqtisodiy maqsadga muvofiqligini baholash yuzasidan xulosa;

DTIH bo'yicha - ijtimoiy ahamiyatini, ijtimoiy sohaning alohida tarmoqlarini va «boshqa tarmoqlar»ni rivojlantirish bo'yicha Hukumat qarorlariga muvofiqligini ishlab turgan quvvatlardan foydalanishni va ularni joylashtirishni maqbullashtirishni hisobga olgan holda baholash yuzasidan xulosa.

- vazirliklar, idoralar, xo`jalik birlashmalari hamda korxonalarining mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, shu jumladan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalarining buyurtmalari bo'yicha shartnoma asosida marketing kon'yunktura tadqiqotlarini o`tkazish;

- korxonalar, tashkilotlar va firmalarning buyurtmalari bo'yicha iste'mol tovarlari va ishlab chiqarish maqsadlaridagi mahsulotlar importining, xarid qilish-sotishning maqbul variantini tanlash yuzasidan tegishli marketing va maslahat xizmatlari ko`rsatish;

- iste'mol bozorlari holatlarini tahlil qilish.